

UDC 81-139

O‘ZBEK TILINI CHET TILI SIFATIDA O‘QITISH MUAMMOLARI, O‘ZBEK DIPLOMATIYASIDA O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTIDAN YUMSHOQ KUCH SIFATIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14262053>

Alimov O.,

O‘zbekiston Respublikasining
Misr Arab Respublikasidagi Elchixonasi attashesi
Qohira, Misr, otabekjon@gmail.com

ANNOTATSIYA

Joriy yil O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 35 yilligi, O‘zbekiston mustaqilligining 33 yilligi nishonlandi. Ammo ushbu vaqt ichida xorijda o‘zbek tilini o‘qitish, xalqimiz adabiyotini targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilmadi.

Asosiy birlamchi muammolar sifatida o‘zbek tilini sodda usulda o‘qitadigan va chet tillarida yozilgan o‘quv qo‘llanmalarining mavjud emasligi, xorijda mahalliy o‘qituvchilar yetishmasligi, o‘zbek tilini o‘rganishga qiziqishning pastligini ko‘rsatish mumkin. Shuningdek, ushbu maqolada o‘zbek tili fonetikasi va grammatikasini o‘qitish uslubini qayta ko‘rib chiqish, xususan, fe‘l zamonlarini soddalashtirish bo‘yicha takliflar beriladi.

O‘zbek tilini o‘qitishdan keyingi bosqish sifatida o‘zbek adabiyoti durdonalarini xalqaro tillarga sifatli tarjima qilish va xorijda faol targ‘ib qilish imkoniyati ko‘rib chiqiladi. Bunda fors adabiyotining hozirga qadar jahon xalqlari orasida sevib mutoala qilinishi, turkiy adabiyotni targ‘ib qilishga bo‘lgan e‘tibor pastligi yuzasidan so‘z yuritiladi.

Maqola so‘ngida o‘zbek tilini va xorijiy tillarga tarjima qilingan adabiyotimiz durdonalaridan “yumshoq kuch” sifatida foydalanish bo‘yicha taklif beriladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek tili, o‘zbek adabiyoti, o‘zbek tili darsliklari, lug‘at, Alisher Navoiy, tarjima, madaniy almashinuv, ta‘lim, professional hamkorlik, turkolog, o‘qituvchilar jalb qilish tizimi islohoti, “yumshoq kuch”, diplomatiya.

ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО, ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ КАК ИНСТРУМЕНТ МЯГКОЙ СИЛЫ В УЗБЕКСКОЙ ДИПЛОМАТИИ

Алимов О.,

Атташе Посольства Республики Узбекистан

в Арабской Республике Египет

г.Каир, Египет, otabekjon@gmail.com

АННОТАЦИЯ.

В этом году широко отмечались 35-летие присвоения узбекскому языку статуса государственного языка и 33-я годовщина независимости Узбекистана. Однако за это время не была начата системная работа по преподаванию узбекского языка за рубежом и популяризации литературы нашего народа за пределами нашего региона.

В качестве основных первоочередных проблем можно указать отсутствие написанных на иностранных языках учебных пособий, обучающих узбекскому в упрощенной форме, отсутствие за рубежом местных преподавателей, низкий интерес к изучению узбекского языка.

Также в данной статье даются предложения по пересмотру методики преподавания фонетики и грамматики узбекского языка, в частности по упрощению времен глаголов.

В качестве следующего шага после обучения узбекскому языку обсуждается перспективы качественного перевода шедевров узбекской литературы на международные языки и их активное продвижение за рубежом. В качестве примера указывается на то, что персидская литература до сих пор пользуется широким авторитетом по всему миру, в то время как пропаганда тюркской литературе уделяется недолжное внимание.

В конце статьи предлагается создать условия для использования в качестве «мягкой силы» узбекского языка и шедевров нашей литературы, переведя их на иностранные языки.

Ключевые слова: *Узбекский язык, узбекская литература, учебники узбекского языка, словарь, Алишер Навои, перевод, культурный обмен, образование, профессиональное сотрудничество, тюрколог, реформа системы подбора учителей, «мягкая сила», дипломатия.*

CHALLENGES OF TEACHING UZBEK AS A FOREIGN LANGUAGE, POSSIBILITIES OF USING THE UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE AS A ‘SOFT POWER’ IN UZBEK DIPLOMACY

Alimov O.,

Attaché of the Embassy of the Republic of Uzbekistan
in the Arab Republic of Egypt
Cairo, Egypt, otabekjon@gmail.com

ABSTRACT

This article examines the pedagogical challenges and strategic opportunities in teaching Uzbek as a foreign language, emphasizing its potential role as a diplomatic tool of soft power. It investigates effective instructional methodologies and explores ways to enhance the educational and diplomatic significance of Uzbek language studies.

The year marks the 35th anniversary of the Uzbek language’s designation as the state language and the 33rd anniversary of Uzbekistan’s independence—milestones widely celebrated domestically. Despite these developments, systematic efforts to teach Uzbek abroad and promote Uzbek literature internationally remain limited.

Key challenges identified include the scarcity of Uzbek language textbooks in foreign languages, a shortage of qualified Uzbek language instructors abroad, and low international interest in studying Uzbek. This article proposes solutions, including revised teaching methods for phonetics and grammar, with a focus on simplifying verb tenses for foreign learners.

Additionally, the article discusses the importance of high-quality translations of Uzbek literary masterpieces into major international languages and their promotion worldwide. In contrast to Persian literature, which has gained global recognition, Turkic literature—including Uzbek—has received relatively limited international exposure. The article concludes by recommending measures to leverage the Uzbek language and its literary heritage as a form of “soft power” through expanded translation efforts and international dissemination.

Keywords: Uzbek language, Uzbek literature, Uzbek language manuals, dictionary, Alisher Navoi, translation, cultural exchange, education, professional cooperation, Turkologist, teacher recruitment system reform, ‘soft power’, diplomacy.

KIRISH

Tilning diplomatik va madaniy ko‘prik sifatidagi ahamiyati, ayniqsa zamonaviy globallashtirilgan dunyoda nihoyatda katta. Aynan xorijiy til o‘rganish orqali ushbu xalq tarixi, madaniyati, adabiyoti va hozirgi holati bilan yaqindan tanishish mumkin.

O‘zbek tili va adabiyoti uzoq tarix va boy merosga ega bo‘lsa-da, xorijda uni targ‘ib qilish oqsamoqda, tilimizni o‘qitish bilan bog‘liq birlamchi qator muammolar borki, ular o‘z yechimini kutmoqda.

Xorijda o‘zbek tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning pastligini masalaning murakkab bir tomoni bo‘lsa, o‘rganishni istaganlar uchun zamonaviy darsliklar, mukammal lug‘atlar mavjud emasligi, chet davlatlarda o‘zbek tilini erkin tushuntira oladigan mahalliy o‘qituvchilar yetishmasligi, ularni moddiy-ma‘naviy qo‘llab quvvatlash mexanizmi yaratilmaganligi hukumat tomonidan hal qilinishi mumkin bo‘lgan jihatidir.

Keyingi yillarda mamlakatimizning jahon sahnasida yuksalib borayotgan nufuzi va mintaqadagi strategik ahamiyati, ayniqsa xalqaro arenadagi siyosiy-diplomatik faollashuv yurtimizga bo‘lgan qiziqishni orttirmoqda. Ushbu vaziyatdan foydalangan holda, o‘zbek tili va madaniyatini chet elda kengroq yoyish, undan diplomatiyaning “yumshoq kuchi” sifatida foydalanish mumkin. Uzoqni ko‘zlagan strategiya asosida o‘zbek tilini xorijda o‘qitish va o‘zbek adabiyotini targ‘ib qilish madaniy va siyosiy aloqalarni mustahkamlovchi, O‘zbekiston milliy manfaatlarini ilgari surishda ko‘maklashuvchi nisbatan samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur maqola va tavsiyalar tilshunos filologning emas, o‘zini avvalo matematik deb biluvchi iqtisodchi-diplomatning boshqa bir rakursdan qarashlari va shaxsiy tajribasi asosida ortirgan tajibalaridan kelib chiqib yozilgan.

Asosiy qism

Tarixan turkiy, xoqoniy yoki chig‘atoy tili nomlari bilan atalgan tilimiz 1920-yillarga kelib rasman zamonaviy o‘zbek tili deya nomlana boshlandi. Bu Markaziy Osiyoda eng ko‘p so‘zlashuvchi til bo‘lib, dunyo bo‘ylab 40 milliondan ortiq kishi undan asosiy so‘zlashuv tili sifatida foydalanadi.

O‘zbek tili bir paytlar Markaziy Osiyoda adabiyot va she‘riyat tili sifatida shuhrat qozongan va keng foydalanilgan.

Chingizxon bosqiniga qadar tilimiz to‘g‘ri (asl) turkiy til nomi bilan mashhur edi. Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Divan lug‘at at-turk” (“Turkiy tillar lug‘ati”) asarida turklarning o‘g‘uz va qipchoq shevalarida hamda xoqon saroyida va davlat ishlarida qo‘llanilgan “xoqoniy” tilida so‘zlashishlarini yozadi. Aynan shu tilda ilk turkiy she‘rlar yaratilgan, rasmiy hujjatlar yozilgan, butun turkiy xalqlarning eng ulug‘ shoiri Alisher Navoiy o‘z asarlarini yaratgan.

XX asrga qadar arab va fors tillari Sharq xalqlarida ilm-fan, din va adabiyot tili sifatida qo'llanilgani bois G'arbda ularni o'rganishga qiziqish katta bo'lgan. Eski o'zbek tili esa O'rta Osiyodan tashqarida yoyilmadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng o'zbek tili, madaniyati va tarixini keng jahonga yoyish va o'zligimizni namoyon qilishga imkoniyat yaraldi. Mustaqillik bergan asosiy ne'mat ham shunda.

Lekin, e'tirof etish joizki, mustaqillikka erishganimizga 33 yil bo'lgan bo'lsa-da bu yo'nalishda aytarli hech bir natijaga erishilmadi.

O'zbek tili va adabiyotini chet elda o'qitish va undan "yumshoq kuch" sifatida foydalanishda ba'zi tizimli muammolarga to'xtalib o'tish mumkin.

A. Cheklangan manbalar va metodologiyalar.

Ma'lumki biron xorijiy tilni o'rganmoqchi bo'lgan shaxs asosiy qo'llanmalarni ochiq internetdan oladi. Butun dunyo bo'ylab Internet foydalanuvchilarining yarmidan ortig'i ma'lumotlarni ingliz tilida izlaydilar.

Afsuski, o'zbek tilini o'rganmoqchi bo'lganlar uchun zamonaviy talablarga javob beradigan darsliklar mavjud emas yoki topish mushkul.

Mavjud darsliklarning bosh muammosi ular asosan o'zbek yoki rus tilida yozilgan va tushunish uchun o'ta murakkab. Shuningdek, ushbu qo'llanmalarda o'zbek tili grammatikasi tizimlanmagan tarzda tushuntirilgani va murakkab jumlar keng keltirilganligiga guvoh bo'lamiz. Bu esa o'rganuvchini chalkashtirib, tildan sovutadi.

Ushbu qo'llanmalarning asosan rus tilida yozilgani o'zbek tilini o'rganish uchun avval rus tilini o'rganishga majburlaydi.

Ma'lumki, ingliz va boshqa ommabop tillarni o'rgatuvchi darsliklar quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

a). Darslar osondan murakkablashib boradi. Bunda kitoblar A1, A2, B1, B2, C1, C2 kabi darajalarga bo'lgan holda tayyorlanadi.

b). Tilda faol qo'llanuvchi so'zlar, kishilik olmoshlari, sanoq so'zlar, fe'l zamonlari, gap yasalishi alohida-alohida o'rgatiladi;

c). Til o'rgatishning boshlang'ich bosqichlarida darsliklarda asosan faol qo'llaniladigan so'zlardan foydalaniladi.

d). Eng ko'p qo'llaniladigan 1000/2000/5000 ta faol so'zlardan iborat lug'atlar tayyorlangan.

e). Xalq orasida keng qo'llaniladigan iboralar o'rgatiladi.

O'zbek tili qoidalarini o'rgatishga mo'ljallangan kitoblarda quyidagi jihatlarga yetarlicha e'tibor qaratilmagan:

1. **Fonetika.** O'zbek tili alifbosidagi "a" va "i" harflari ikki xil tovushni ifodalashda qo'llaniladi. Bular ingliz tilida /ʌ/, /æ/ va /i/, /ɪ/ kabi transkripsiyalar bilan

beriladi. Masalan, rus tilidagi "ога" ("u ayol") va o'zbek tilidagi "ana" ("mana", "anavi") so'zlarini talaffuz qilishda /ʌ/ yoki /æ/ tovushlari ishlatilishi bois ular turlicha talaffuz qilinadi. Noma'lum sabablarga ko'ra, /ɪ/ tovushi o'zbek tilida alohida tovush emas, qisqa "i" deya ataladi, ammo turk, ingliz, xitoy va boshqa ko'plab tillarda u alohida tovush sifatida o'qitiladi.

Ba'zi qipchoq va o'g'uz shevalarida "o'", "u" va "o" harflari ham ikki xil tovushni anglatadi, lekin o'zbek adabiy tili fonetikasi Toshkent-Farg'ona qarluq shevasiga asoslanganligi inobatga olinsa, boshqa qo'shimcha unli tovushlarga e'tibor qaratishga ehtiyoj yo'q.

2. **Fe'l zamonlari.** Fe'l zamonlari qaysi hollarda qo'llanishi bo'yicha ma'lumotlar kam. Masalan, Nurmonov, Sobirov, Muhiddinova, Xudoyberganovning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" va boshqa bu kabi kitoblarda uzoq o'tgan zamon fe'lini tushuntirishda fe'lning *"-gan shakli -di ga nisbatan harakatning nutq so'zlangan vaqtdan ancha oldin ro'y berganini bildirishi"* ta'kidlangan. Albatta bu ta'rif ba'zi hollarda mos kelsa-da, xorijliklar ko'zi bilan qaralganda ko'p hollarda chalg'itadi.

"O'zbekiston 1991-yilda mustaqil bo'ldi" jumlasida voqea bungan 33 yil oldin bo'lgan voqea haqida so'z yuritilmoqda. *"Shuhrat uyga kelgan"* jumlasida hozir ham Shuhrat uydaligi ifodalangan (hozirgi zamon ma'nosi). Bu holda voqea ancha oldin emas, 5 daqiqa oldin sodir bo'lgan bo'lishi ham mumkin.

3. **"-ib edi"**. O'tgan zamon hikoya fe'li o'zbeklar orasida ommalashmagan va ko'pchilik uchun tushunarsiz, lekin grammatika kitoblari u mavjud. *"qilib edi"* kabi fe'llarni qo'llanilishi va o'qitilishi qayta ko'rib chiqishga muhtoj.

4. **Ekan.** *"qilgan ekan"* shaklida yasalgan fe'llar esa uzoq o'tgan zamon hikoya fe'li tarzida tushuntiriladi, ammo *"qilmoqchi ekan"*, *"qilyapti ekan"* kabi shakllarga esa izoh berilmaydi.

5. **-ni.** Tushum kelishigini yasovchi *"-ni"* qo'shimchasi ba'zi hollarda tushirib qoldirilishi mumkin. Masalan, "Menga kitob bering" yoki "Menga kitobni bering". Ammo bu holatlar farqi tushuntirilmasligi til o'rganuvchini chalg'itadi.

6. **Qo'shimchalar.** Turkiy tillarda Hind-Yevropa tillaridan farqli o'laroq qo'shimchalar nihoyatda keng qo'llaniladi va tilning eng asosiy qismlaridan hisoblanadi. Lekin bu masalaga kam e'tibor qaratiladi. Imkon qadar barcha qo'shimchalar, jumladan yangi grammatik ma'no beruvchi qo'shimchalarga alohida urg'u berilishi o'rganuvchiga yengillik yaratadi.

7. **Qo'shma fe'llar.** Turkiy tillarda oddiy fe'llardan ko'ra qo'shma fe'llar ko'proq va kengroq qo'llaniladi. Lekin ularni batafsil tushuntirish, lug'atda alohida ko'rsatish foydali bo'ladi.

8. **Lug'at.** Odatda xorijiy tilni o'qituvchi grammatika kitoblariga faol so'zlarni o'z ichiga oluvchi mini-lug'at ilova qilinadi. Ammo o'rganib chiqilgan o'zbek tilini

o‘qituvchi qo‘llanmalarda mini-lug‘at bo‘lsa-da, unda faol so‘zlar emas, biron mantiqqa asoslanmay “duch kelgan” so‘zlar jamlangan. Bu ham chet ellik uchun sezilarli qiyinchilik tug‘diradi.

Ushbu jihatlarni inobatga olgan holda o‘zbek tilini mustaqil o‘rganmoqchi bo‘lgan xorijliklar uchun ingliz tilida yozilgan “O‘zbek tili grammatikasi” nomli qo‘llanma tayyorlandi.

Mazkur qo‘llanmani tayyorlash davomida o‘rganuvchiga yengillik yaratish maqsadida fonetika va grammatika qoidalari qiyosiy taqqoslanadi. O‘zbek tili grammatikasiga oid kitoblarda fe‘l zamonlarining ishlatilish hollari minimal tarzda tushuntirilgani bois, taklif etilayotgan darslikda bu masalaga alohida e‘tibor qaratildi.

Yuqorida keltirilgan muammoli vaziyatlarni obdon o‘rganib chiqish, akademik baxslar va tadqiqotlar asosida xorijiy tillar tajribasidan kelib chiqib o‘zbek tili grammatikasini isloh qilish lozim, deb hisoblaymiz.

Fikrimizcha, fe‘l zamonlarini o‘qitishda ularni kategoriyalarga ajrab tushuntirish imkoniyatini ko‘rib chiqish kerak. Taklif etilayotgan darslikda fe‘l zamonlari jadval asosida quyidagi shakllarga ajratilgan (*kelmoq* fe‘li misolida):

	Hozirgi-kelasi zamon	O‘tgan zamon
Oddiy shakl	<i>kelaman</i>	<i>keldim</i>
Tugallangan shakl	<i>kelganman</i>	<i>kelgan edim</i>
Davomli shakl	<i>kelayapman</i>	<i>kelayotgan edim</i>
Gumon-odat shakli	<i>kelarman</i>	<i>kelar edim</i>
Maqsad shakli	<i>kelmoqchiman</i>	<i>kelmoqchi edim</i>
Hikoya shakli	<i>kelibman</i>	<i>kelib edim</i>

Ushbu jadvalda fe‘l zamonlari ikkita – Hozirgi-kelasi va O‘tgan zamonga bo‘linishi, ularning har biri o‘z navbatida 6 ta shakllardan iboratligi keltirilgan.

“*Ekan/emish*” yordamchi fe‘llari esa zamon yasovchi emas, hikoya ma’nosini beruvchi so‘z sifatida ajratish mumkin. O‘z navbatida “*bo‘lmoq*” so‘zi yordamchi fe‘l sifatida kelasi zamondagi aniqlik ma’nosini berishda qo‘llaniladi:

	Hozirgi-kelasi zamon hikoya ma’nosi bilan (<i>ekan/emish</i>)	Aniq kelasi zamon ma’nosi (<i>bo‘lmoq</i>)
Oddiy shakl	<i>kelaman ekan</i>	<i>keladigan bo‘laman</i>
Tugallangan shakl	<i>kelgan ekanman</i>	<i>kelgan bo‘laman</i>
Davomli shakl	<i>kelayapman ekan</i>	<i>kelayotgan bo‘laman</i>
Gumon-odat shakli	<i>kelar ekanman</i>	<i>kelar bo‘larman</i>
Maqsad shakli	<i>kelmoqchi ekanman</i>	<i>kelmoqchi bo‘laman</i>
Hikoya shakli	<i>kelibman ekan</i>	<i>kelib bo‘laman</i>

Taklif etilayotgan qo'llanmada "-ni" qo'shimchasining ishlatilishi va tushirib qoldirilishi, barcha faol va ba'zi nafaol zamonlarning qo'llanish holatlari, qo'shma fe'llarning yasalishi, qo'shimchalar vazifasi kengroq tushuntiriladi.

Boshqa qo'llanmalardan farqli ravishda kitobning asosiy qismidagi 20ta darslar yirik mavzularni alohida-alohida to'liq tushuntirishga emas, balki xorijiy tilni o'rganish uchun eng zarur bo'lgan qoidalar va konstruksiyalarni o'rgatishga bag'ishlanadi, keyinchalik mavzular asta murakkablashib boradi.

O'zbek tilida fe'l zamonlarini tushunish xorijliklar uchun nisbatan murakkabligini inobatga olib, qabul qilingan standartlardan farqli ravishda ingliz tiliga qiyoslab sodda ko'rinishda tushuntiriladi.

Har bir dars so'ngida qisqa mashqlar va matnlar keltirildan. Bunda o'rganuvchiga yuk bo'lmasligi uchun mashqlar soni ko'paytirilmagan. Zero, hozirgi zamonda har bir shaxs ixtiyoriy tilda istalgan miqdorda ma'lumotlarni Internet tarmog'idan topishi va turli dasturlar yordamida ularni tarjima qilishi mumkin.

Kitob so'ngida til o'rganishni osonlashtiruvchi qo'shimcha qismlar ham kiritilgan. Ma'lumki, xorijiy tilni o'rgangan shaxs tegishli davlatga borganida rasmiy til va xalq qo'llaydigan so'zlashuv o'rtasidagi farq tufayli, ushbu tilni tushunishda qiyinchilikka uchraydi. Shuni inobatga olib, o'zbek tili shevalari va ularning farqlari tushuntirilgan hamda xalq orasida ishlatiladigan, lekin adabiy tilga kiritilmagan ba'zi keng foydalaniladigan rus tilidan o'zlashgan so'zlar ham mazkur kitobga ilova qilingan.

Xorijiy tilni she'rlar va qo'shiqlardan foydalanib o'rganish juda qulay. Shuni inobatga olib, o'zbeklar orasida ommalashgan she'r va qo'shiqlar kitobda keltirilgan bo'lib, ulardagi murakkab so'zlar tarjimasi ham bevosita berilgan. O'rganuvchi mustaqil ravishda ushbu qo'shiqlarni bevosita internet tarmog'ida topishi va qo'shiq matni bilan o'rganishi mumkin.

Kitobda mustaqil tarjima qilish uchun O'zbekiston va uning qadimiy shaharlari, buyuk tarixiy shaxslari to'g'risida qiziqarli ma'lumlar ham mavjud.

Darslik so'ngida ilk martaba 2400ga yaqin eng faol qo'llanadigan o'zbekcha-inglizcha mini-lug'at tayyorlanib, ular turli dasturlar yordamida faollik darajasini tekshirish asosida saralangan.

B. O'zbek tili va adabiyotidan "yumshoq kuch" vositasi sifatida foydalanish.

Davlatlar va xalqlar o'rtasidagi madaniy hamkorlik diplomatik faoliyatning asosiy qismlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonning xorijdagi diplomatik vakolatxonalariga o'zbek tilini chet elda ommalashtirish vazifasi ham yuklatilgan.

Qayd etish joizki, ushbu missiyani bajarishga to'sqinlik qiluvchi muammolar avvalambor sifatli darsliklar, mukammal lug'atlar mavjud emasligi, xorijiy tilda o'zbek tilini erkin tushuntira oladigan o'qituvchilar yetishmasligi, ularni moddiy-ma'naviy qo'llab quvvatlash mexanizmi yaratilmaganligidir.

Bu muammolarni hal qilish uchun hukumat tomonidan mablag' ajratib hal qilish mumkindir. Ammo asosiy muammo xorijliklar orasida o'zbek tiliga qiziqishning nihoyatda pastligida.

Qohira universitetida turk tilini o'rganayotgan talabalar 4-kursda qo'shimcha ozarbayjon, qozoq va o'zbek tilini o'rganishlari lozim. Mening nuqtayi nazarim bo'yicha tanlov yaqqol oydindek ko'rinadi! Lekin, 1000 yillik buyuk tarix, Alisher Navoiy va Bobur ijod qilgan til, qadimiy shaharlari va buyuk ajdodlari bor xalq bo'lish xorijliklarni qiziqitira olmaydi. Tabiiyki, talabalar uchun universitetni tamomlagandan keyin bu tilni o'rganib yaxshi ish topish muhimdir.

Shu o'rinda qayd etish joizki, istisno tariqasida Misrda va boshqa xorijiy davlatlarda fors tiliga bo'lgan qiziqish ancha yuqori.

Yaqin Sharqdagi siyosiy vaziyat tufayli ko'plab arab davlatlarining, xususan Misrning Eron bilan savdo-iqtisodiy aloqalari nihoyatda cheklangan. Fors tilini o'rganish universitetdan keyingi davrda yangi imkoniyatlar va ish o'rinlari bermasa ham bu tilga qiziqish va uni tadqiq etishga moyillik yuqori.

Ishonamizki, buning asosiy sababi fors tilida yozilgan badiiy asarlarning xorijiy tillarga mohirlik bilan tarjima qilinganligi va tarqatilganligidadir.

Nafaqat Sharqda, balki G'arbda ham Firdavsiy, Umar Xayyom, Rumiyni bilmagan ziyoli kishini topish amri mahol. Ularning turli tillarga tarjima qilingan she'rlari hozirga qadar bot-bot tilga olinadi.

Afsuski, turkiy xalqlarni yakqalam qilgan shoir va mutafakkir, so'z mulkining sultoni Alisher Navoiyni hatto sharqshunoslar orasida ham bilguvchilar ko'p emas. Buning asosiy sababi sifatida Navoiyning asarlari rus tilidan boshqa tillarga tarjima qilinmaganligi va keng yoyilmaganligida deb hisoblaymiz. Albatta Navoiyning ba'zi she'rlari ingliz va xatto arab tiliga ham o'girilgan, ammo bu dengizdan bir tomchi kabi.

Bu muammodagi o'ta muhim jihat xorijliklar orasida Navoiy asarlarini tarjima qila oladigan salohiyatli shaxsning yo'qligida. Bunday shaxslarni yetirshtirish uzoq muddat va alohida yondashuv talab etadi.

Ma'lumki, joriy yil O'zbekistonning Misrdagi Elchixonasi yordamida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani ilk marotaba arab tiliga tarjima qilindi. Tarjima sifatli chiqishi uchun o'zbek yoki rus tilini bilguvchi bir necha professor, doktor, o'qituvchi va talabalar bilan muzokaralar o'tkazildi, ular tomonidan asarning ba'zi qismlari namuna tariqasida tarjima qilindi.

Ushbu muzokaralar shuni ko'rsatdiki, buyuk asarni tarjima qilguvchi shaxsning ona tilisi nafaqat arab tili bo'lishi shart, balki u o'z tilida voqealarni nihoyatda go'zal ifodalay bilishi va ko'p yillik tajribaga ega bo'lishi talab etiladi. Bunda nasr uslubida yozilgan asarni tarjima qilishda voqealar ma'nosi badiiy bezak berilgan holda tarjima qilinishi va asl matndan biroz farq qilishi tufayli, uning qaysi tildan o'girilishi ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Lekin, nazmda bitilgan asarlar faqat asl tildan va nihoyatda katta tajribaga ega shaxslar tomonidan o'girilishi lozim. Navoiy asarlarini tarjima qilishga jur'at etgan shaxs nafaqat o'zbek tilini mukammal tushunishi, balki eski o'zbek tili deya ataluvchi "chig'atoy" tilini bilishi, arab va fors tillari hamda tasavvuf va sharq falsafasidan xabardor bo'lishi, o'z ona tilida mohirona qalam tebrata oladigan adabiyotshunos olim bo'lishi talab etiladi.

Bunday "universal" shaxsni topish qanchalik murakkabligi oydek ravshan.

Afsuski, A.Navoiyga oid sifatli ma'lumotlar, hujjatli yoki badiiy filmlar nafaqat arab tilida, hatto ingliz tilida ham ochiq manbalarda mavjud emasligi so'z mulkining sultoni, buyuk shoir va davlat arbobi merosini xalqaro miqyosda o'rganish, xorijda navoiyshunoslarni yetishtirish, uning shoh asarlarini chet tillariga tarjima qilishga undashni yanada murakkablashtirmoqda.

Muammoni yechish uzoq yillar va to'g'ri tanlangan usul talab etadi.

Misrlik turkshunoslar tomonidan chig'atoy tilining ulkan merosini e'tirof etilsa-da, bu yo'nalishda tadqiqot olib borayotganlar 3-4 nafarni tashkil etadi.

Aynan ushbu turkshunos olimlar yordamida mumtoz o'zbek adabiyoti durdonalarini arab tiliga tarjima qilish imkoniyatini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Lekin ularning o'zbek tili va adabiyotiga oid bilim va ko'nikmalari sayoz bo'lib qolmoqda.

Shu o'rinda qayd etish joizki, hozirda bir qator misrlik o'qituvchilar O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Toshkent Davlat sharqshunoslik universiteti va boshqa oliy ta'lim muassasalarida arab tilidan dars bermoqdalar.

O'ylaymizki, ushbu o'qituvchilik lavozimlariga ilgari turkiy tillar bo'yicha ilmiy ishlar olib borgan malakali doktor va professorlar jalb qilinsa, ular uchun ham, xalqimiz uchun ham yanada manfaatli bo'lardi. Uzoq muddatda ularning yordamida o'zbek adabiyoti durdonalarini arab tiliga tarjima qilish, Misrda saqlanayotgan O'zbekistonga oid qadimiy qo'lyozmalarni tadqiq etish, o'zbek tili va madaniy merosini keng yoyishga qo'shimcha turtki berish mumkin.

Zero, hozirda Misrdagi universitetlarda kamtar maosh evaziga o'z umrining 20-30 yilini sarflab turkiy xalqlar tillari va tarixini tadqiq etib kelayotgan olimlar va tadqiqotchilar talaygina bo'lib, ularning aksariyati salohiyatidan foydalanilmayapti.

Aynan ushbu shaxslar bilim va tajribasidan foydalanish, ularni O'zbekistonda doimiy ishlarga jalb qilish yaqin istiqbolda biz istagan va kutgan samaraga yetaklaydi.

XULOSA

O'zbek tilini xorijda o'qitishni istar ekanmiz, bu muammoni nafaqat ba'zi bir sanalarda yodga olish, balki tizimli dastur asosida unga yondashish talab etiladi.

Avvalo osonlashtirilgan va xorijliklar uchun mo'ljallangan, ularning tillarida yozilgan qo'llanmalar va sifatli lug'atlar tayyorlash tavsiya etiladi.

O'zbek tilini o'rgangan shaxslarning ilk avlodi shakllanishiga qadar mamlakatimizga xorijlik o'qituvchilarni jalb qilish mehanizmini qayta ko'rib chiqish, bunda turkshunos professor va doktorlarga e'tibor qaratish muhim. Qisqa muddatli istiqbolda aynan ushbu o'qituvchilarga ham professional ham mustaqil faoliyatlarida ko'maklashish, o'zbek adabiyotshunoslarini biriktirish o'zaro manfaatli natijalarga zamin yaratadi.

Uzoq muddatli davrda esa, O'zbekistonda faoliyat yuritgan va o'zbek tili, adabiyoti, xalqimiz madaniyati va tarixini yaqindan o'rgaib mehr qo'ygan olimlar tomonidan shoh asarlarni mohirona tarjima qilinishiga erishish mumkin.

O'zbek diplomatiyasining asosiy vazifalaridan biriga paritet tamoyili asosida xorijiy davlatlaratning o'rta maktablari va oliy ta'lim muassasalari o'quv darsliklariga Navoiy, Bobur, Qodiriy kabi shoir va yozuvchilar hayoti va ijodi, ularning tarjima qilingan asarlarini kiritish tavsiya etiladi.

Ta'kidlash joizki, Navoiy, Bobur va boshqa adiblarimiz asarlarining xorijiy tillarga sifatli tarjima qilinishi va faol tarqatilishi, yurtimiz va xalqimizning jahon sahnasida so'nmas "yumshoq kuch"ga ega bo'lishi, mamlakatimizga bo'lgan qiziqishni ortishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Talqin, 2005.
2. M.Abuzalova. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Morfologiya). Buxoro davlat universiteti, 2018.
3. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. Fan va texnologiya, 2009.
4. X.Muhiddinova, D.Xudayberganova, I.Umirov, N.Jiyanova, T.Yusupova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Ilm ziyo, 2013.
5. A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova, Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. Fan va texnologiya, 2009.
6. Ahmedjanova Zumrad. Uzbek language.

7. Махматов Т.М., Хамидов Х.Х., Лосева-Бахтиярова Т.В., Узбекский язык. Москва: Прометей, 2022.
8. Кононов А.Н. Грамматика узбекского языка. Ташкент: Госиздат УзССР, 1948.
9. Узбекский язык для стран СНГ. Москва: ФГБОУ ВПО МГЛУ, 2012.